



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ZAMONAVIY HIKOYALARDA AKS ETGAN IJTIMOIIY MUAMMOLAR TAVSIFI (ISAJON SULTON HIKOYALARI MISOLIDA)

Raimqulova Sohiba Bahromovna

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

*Termiz shahar 1-son ixtisoslashtirilgan maktab-internati ma'naviy va ma'rifiy ishlar
bo'yicha direktor o'rinbosari*

ANNOTATSIYA; *Mazkur maqolada Isajon Sulton hikoyalarida aks etgan ijtimoiy muammolar zamonaviy badiiy tafakkur nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda "Bog'i Eram", "Todd", "Tilim lashkari yoxud Muqanna", "Manzil", "Mening gulim", "Toshkelinchak" kabi hikoyalar asosida keksalik va yolg'izlik, mehnatning qadrsizlanishi, shaxs erksizligi, mafkuraviy manipulyatsiya, soxta najotkorlik, jamiyatning ommaviy ongga bo'ysunishi, ma'naviy tanazzul va sof qadriyatlarining himoyasizligi muammolari yoritiladi. Asarlarda ijtimoiy muammo ochiq tanqid orqali emas, balki ramz, xotira, mifologik tafakkur va psixologik tasvir vositalari orqali badiiy umumlashtirilgani ko'rsatib beriladi. Maqola Isajon Sulton nasrida ijtimoiy muammolar poetik tafakkur asosida chuqur falsafiy va estetik darajada talqin etilganini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: *hikoya janri, ijtimoiy muammo, ramziy poetika, shaxs va jamiyat, ma'naviy tanazzul, keksalik va yolg'izlik, mafkuraviy manipulyatsiya, ommaviy ong, badiiy tafakkur, zamonaviy o'zbek adabiyoti*

АННОТАЦИЯ; *В статье анализируются социальные проблемы, отражённые в рассказах Исаджона Султана, с точки зрения современного художественного мышления. На материале рассказов «Сад Эрама», «Тодд», «Колдовское войско, или Муканна», «Путь», «Мой цветок», «Каменная невеста» рассматриваются проблемы старости и одиночества, обесценивания труда, утраты личной свободы, идеологической манипуляции, ложного спасительства, подчинения массового сознания и духовного кризиса. Социальные конфликты раскрываются не через прямую критику, а посредством символов, памяти, мифологического мышления и психологического анализа. Делается вывод о том, что проза Исаджона Султана представляет собой значительное явление современной узбекской социальной и философской литературы.*

Ключевые слова: *жанр рассказа, социальная проблема, символическая поэтика, личность и общество, духовный кризис, старость и одиночество, идеологическая манипуляция, массовое сознание, художественное мышление, современная узбекская литература*

ANNOTATION; *This article analyzes social problems reflected in the short stories of Isajon Sulton from the perspective of contemporary artistic thinking. Based on stories such as "The Garden of Eram," "Todd," "The Enchanted Army or Muqanna," "The Destination," "My Flower," and "The Stone Bride," the study explores issues of old age*



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



and loneliness, the devaluation of labor, loss of individual freedom, ideological manipulation, false salvation, mass consciousness, and spiritual decline. Social conflicts are revealed not through direct criticism but through symbolism, memory, mythological imagination, and psychological depiction. The article concludes that Isajon Sulton’s prose represents an important phenomenon in modern Uzbek social and philosophical literature.

Keywords: *short story genre, social problem, symbolic poetics, individual and society, spiritual crisis, old age and loneliness, ideological manipulation, mass consciousness, artistic thinking, contemporary Uzbek literature*

Kirish

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida hikoya janri jamiyat hayotida kechayotgan ijtimoiy va ma’naviy jarayonlarni eng nozik va teran aks ettiruvchi badiiy shakllardan biri sifatida muhim o‘rin egallaydi. Hikoyaning ixcham shakli va mazmuniy zichligi ijtimoiy muammolarni keng ko‘lamli syujetlarsiz, balki shaxsiy taqdir, ichki kechinma va ramziy obrazlar orqali ifodalash imkonini beradi. Shu sababli hikoya janri bugungi adabiy jarayonda jamiyat ongidagi ziddiyatlar va ma’naviy inqirozlarni badiiy idrok etishning yetakchi vositasiga aylanmoqda.

Isajon Sulton hikoyalarida ijtimoiy muammolar bevosita tashqi konfliktlar yoki ochiq tanqid orqali emas, balki xotira, mif, ramz va metaforik tafakkur orqali ochiladi. Yozuvchi jamiyatdagi keksalik va yolg‘izlik, mehnatning qadrsizlanishi, ommaviy ongning manipulyatsiyaga moyilligi, soxta najotkorlik va shaxs erksizligi kabi muammolarni individual taqdirilar orqali umumlashtiradi. Shu jihatdan Isajon Sulton hikoyalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish zamonaviy o‘zbek nasrida ijtimoiy muammolarning poetik talqinini anglash uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Isajon Sulton “Bog‘i Eram” hikoyasida ijtimoiy muammolarni bevosita tanqid yoki ochiq konflikt orqali emas, balki xotira, ramz va metafizik tasavvur orqali ochadi. Asarda jamiyat muammolari kundalik hayot manzaralari (bedazor, ariq, non, qariya, bola) bilan uyg‘unlashgan holda, inson umrining ijtimoiy qiymati masalasiga yo‘naltiriladi. Shu bois hikoyadagi ijtimoiy muammo individual taqdir bilan cheklanmaydi, balki avlodlararo takrorlanadigan umumiy holat sifatida talqin etiladi.

Hikoyaning boshlanishidagi bolalik xotirasi ijtimoiy muhitni aniq belgilaydi. Qahramon o‘z yoshini aniq eslay olmasligi, biroq Xolmuhammad buva obrazini ravshan yodda saqlashi ijtimoiy xotiraning tanlab ishlash mexanizmini ko‘rsatadi:

“Adashmasam, o‘shanda men sakkizmi-to‘qqizmi yashar edim... xullas, esimda yo‘q. Ammo cholning kimligi aniq esimda — ko‘chaning boshida, loysuvoq uyining oldida doim quyoshda isinib o‘tiradigan Xolmuhammad buva edi u”³¹. Hikoyaning bu qismi shuni anglatadiki, shaxsiy tafsilotlar unutilishi mumkin, ammo jamiyat chekkasida qolgan inson obrazi ongda chuqur iz qoldiradi. Xolmuhammad buva — ijtimoiy jihatdan “ko‘rinmas”,

³¹ Sulton, Isajon. Boqiy darbadar: roman. — Toshkent: O‘zbekiston, 2011. —183. (280 b.)



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ammo ma’naviy jihatdan og‘ir yukni ko‘targan avlod vakilidir. Uning yig‘isi individual hissiyot emas, balki jamiyatdagi keksalik va yolg‘izlik muammosining badiiy ifodasidir.

Xolmuhammad buvaning monologi hikoyadagi eng muhim ijtimoiy-falsafiy nuqtalardan biridir: “Bir mahallar men ham onam yopgan nonni shunaqa oqizib yer edim... Evoh, o‘zim ham shu ariqdagi nonday oqdim-ketdim...³²”. Bu yerda “ariqdagi non” metaforasi inson umrining jamiyat oqimida izsiz yo‘qolishini bildiradi. Muallif keksalikni biologik qarish sifatida emas, balki ijtimoiy ahamiyatdan tushish, mehnat va umrning e’tirofsiz qolishi sifatida talqin qiladi. Qariyaning nonni olib ho‘ngrab yig‘lashi jamiyatda keksa avlodga bo‘lgan e’tibor tanqisligining kuchli ramziy ifodasidir. Hikoyaning markaziy g‘oyalardan biri — ijtimoiy holatlarning takrorlanishidir. Qahramon o‘zini bolalikda kuzatgan manzaraning bevosita ishtirokchisiga aylanganini anglaydi: “Shuurimda o‘sha — bolaligim, bizlarga qarab yig‘lagan Xolmuhammad buvaning qiyofasi... dilimda esa bu g‘alati charxpalakning haybatidan qo‘rquv...³³”. Hikoyada bu qism ijtimoiy muammoning yopiq aylanishini ifodalaydi: kecha yig‘lagan chol bugun xotiraga aylanadi, bugungi bola esa ertaga uning o‘rnini egallaydi. Shunday qilib, muallif jamiyatda keksalik va “oqib ketish” holati tasodif emas, balki tizimli muammo ekanini ko‘rsatadi.

Bog‘i Eram — hikoyada diniy-mifologik makon bo‘lishi bilan birga, ijtimoiy adolatning ramziy modelidir. Bog‘dagi bahaybat daraxtdan uzilib tushayotgan yaproqlarda insonlarning ismlari bitilgani jamiyatda e’tirof etilmagan hayotlar ham mutlaq qiymatga egaligini anglatadi. Ayniqsa, qahramonning “bu safar yaproqda mening ismim yozilganmikin?” degan savoli ijtimoiy muammoni shaxsiy darajaga olib chiqadi: inson boshqalarning ketishini tomosha qilar ekan, oxir-oqibat o‘zining ham shu jarayonga daxldorligini anglaydi.

Darbonning “Endi kira qol, yetar...” degan chaqirig‘i esa ijtimoiy hayotdan chekinish, shaxsning faol subyektlikdan chiqishining ramziy ifodasidir.

Hikoyaning yakunida paydo bo‘ladigan non detali ijtimoiy xulosani muvozanatlashtiradi: “...suvga bo‘kkan bo‘lsa-da, taftini yo‘qotmagan bir burda non...³⁴”. Bu obraz jamiyat insonni ijtimoiy oqimda “oqizib yuborishi” mumkinligini, biroq insoniylik, mehr va xotira to‘liq yo‘qolmasligini ko‘rsatadi. Non — avloddan avlodga o‘tuvchi ijtimoiy-madaniy xotira tashuvchisi bo‘lib, hikoyadagi umidsizlikni mutlaq emas, balki nisbiy holatga aylantiradi. “Bog‘i Eram” hikoyasida Isajon Sulton ijtimoiy muammolarni: keksalik va yolg‘izlik, inson umrining jamiyatda sezilmasdan o‘tishi, mehnat va fidoyilikning qadrsizlanishi, avlodlar xotirasining uzluksiz, ammo og‘riqli davomiyligi kabi masalalar orqali chuqur badiiy-falsafiy darajada yoritadi.

Asar ijtimoiy tanqidni ochiq shaklda emas, balki ramz, xotira va metaforik tasavvur orqali amalga oshiradi. Shu bois “Bog‘i Eram” zamonaviy o‘zbek nasrida ijtimoiy

³² Sulton, Isajon. Boqiy darbadar: roman. — Toshkent: O‘zbekiston, 2011. —183. (280 b.)

³³ Sulton, Isajon. Boqiy darbadar: roman. — Toshkent: O‘zbekiston, 2011. —188. (280 b.)

³⁴ Sulton, Isajon. Boqiy darbadar: roman. — Toshkent: O‘zbekiston, 2011. —189 (280 b.)



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



muammolarni poetik tafakkur yordamida talqin qilgan yuksak estetik va ilmiy ahamiyatga ega asar sifatida baholanadi.

I.Sultonning “Todd” hikoyasi ijtimoiy muammolarning hikoya yo‘li bilan ochib beradi. Hikoya boshidayoq muallif hayot va falsafa munosabatini mutlaq emas, ijtimoiy tajriba bilan shartlangan hodisa sifatida talqin qiladi. Roviylar quyidagicha e‘tirof etadi: “Hayotni faqat falsafadan iborat, deb o‘ylash xato ekanligini tushunib yetgandayman. Chunki hayotning o‘zi uni rad qilgan ekan. Har kim o‘zining ko‘rgan-kechirganlariga moslab, o‘zicha falsafa to‘qir ekan”³⁵. Mazkur qismda hikoyaning ijtimoiy-falsafiy asosini belgilaydi. Bu yerda falsafa abstrakt nazariya emas, balki ijtimoiy hayot mahsuli sifatida tushuniladi. Muallif shu orqali individual va tarixiy tajribani e‘tibordan chetda qoldirgan har qanday “tayyor falsafa”ni rad etadi. Bu pozitsiya asar davomida Mamasiddiq pishiq taqdiri misolida badiiy isbotini topadi.

Roviylar o‘z fikrini ilgari surar ekan, zamon va umr tezligi muammosini alohida urg‘u bilan ta’kidlaydi: “Zamon tez, vaqtu umr shovullab o‘tib ketayotir, aytar gapingizni aytib yo ulgurasiz, yo yo‘q...”³⁶. Bu jumla, shunchaki, falsafiy mulohaza emas, balki zamonaviy jamiyatning ijtimoiy ritmini ifodalaydi. Inson: o‘ylashga, tahlil qilishga, hayot mazmunini anglashga vaqt topolmaydi.

Muallifning “mening aytar so‘zim boshqa” deya Todd voqeasiga murojaat qilishi tasodifiy emas. Bu yerda badiiy hikoya ijtimoiy haqiqatni ochishning yagona imkoniga aylanadi. Chunki jamiyat sharoitida hayot shunchalik tez va bosimli kechadiki, uni faqat voqea va obraz orqali anglash mumkin bo‘ladi.

Mamasiddiq pishiq obrazi orqali asarda mehnatning ijtimoiy talqini ochiladi. Quyidagi iqtibos bu masalaning markazida turadi: “Pishiqning bolalari ham o‘ziga o‘xshagan pishiqqina, tinim bilishmas edi... Odamlar ‘Mamasiddiq pishiq juda boy’ deb gapirib yurishardi.”³⁷. Bu yerda muhim ijtimoiy paradoks yuzaga chiqadi: jamiyat mehnatkashlikni boyluk bilan tenglashtiradi, ammo real natija bunga mos kelmaydi. Asarda pishqlik, ijtimoiy stereotip, hatto mif sifatida ko‘rsatiladi. Jamiyat nazarida Mamasiddiq tinmay ishlaydi demak, boy bo‘lishi kerak. Ammo voqelikda u o‘ziga qaramaydi, umrini ro‘zg‘orga qurbon qiladi, oxir-oqibat g‘aribona hayot kechiradi. Bu holat mehnat va natija o‘rtasidagi ijtimoiy uzilishni fosh etadi. Roviylarning quyidagi e‘tirofi hikoyaning emotsional emas, aynan ijtimoiy tanqidiy nuqtasini belgilaydi: “Mamasiddiq pishiq bilan aloqador xotiralar yurakni g‘ashlantiradigan darajada g‘uborlidir”³⁸. G‘ubor tushunchasi bu yerda shaxsiy xotira emas, balki adolatsiz jamiyat, tan olinmagan mehnat, behuda sarflangan umr ramziga aylanadi. Muallif shu orqali jamiyatning oddiy inson oldidagi axloqiy qarzdorligini eslatadi. Chunki Mamasiddiq pishiq jamiyat uchun yashaydi, biroq jamiyat uni anglmaydi.

³⁵ Sulton, Isajon. Boqiy darbadar: roman. — Toshkent: O‘zbekiston, 2011. — 152 b (280 b.)

³⁶ Sulton, Isajon. Boqiy darbadar: roman. — Toshkent: O‘zbekiston, 2011. — 152 b (280 b.)

³⁷ Sulton, Isajon. Boqiy darbadar: roman. — Toshkent: O‘zbekiston, 2011. — 153 b (280 b.)

³⁸ Sulton, Isajon. Boqiy darbadar: roman. — Toshkent: O‘zbekiston, 2011. — 153 b (280 b.)





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



“Todd” hikoyasi falsafa va hayot o‘rtasidagi ziddiyatni, zamon tezligi tufayli yuzaga kelgan ijtimoiy siqilishni, mehnatning miflashuvi va adolatsiz baholanishini, oddiy inson umrining jamiyat ichida “yugurib o‘tib ketishini” chuqur badiiy-ijtimoiy tahlil darajasida ochib beradi. Mamasiddiq pishiq obrazi esa jamiyat ko‘z o‘ngida “pishiq”, ammo tarix oldida fidoiy va qurbon inson sifatida namoyon bo‘ladi.

Isajon Sulton nasrida ijtimoiy muammolar bevosita didaktik bayon orqali emas, balki ramziy-mifologik tafakkur asosida yoritiladi. “Tilsim lashkari yoxud Muqanna” hikoyasida bu yo‘nalish ayniqsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Asar boshlanishida tasvirlangan shamol hodisasi tabiat manzarasi sifatida emas, balki jamiyat ongida ildiz otgan kollektiv qo‘rquvning timsoli sifatida talqin etiladi: “Bu shamol yiliga bir marta, dov-daraxtlar kuz libosini kiyib, tevarak-javonib lovullab yonayotgan qizg‘ish-za‘far yaproqlar yog‘i ostida qolgan mahalda qo‘zg‘alar, tuni bilan olamning to‘s-to‘polonini chiqarib, tong vaqtidagina tinar edi. Uning g‘alati nom bilan atalishi haqida el og‘zida ajoyib va qadimiy bir rivoyat yurar edi”³⁹. Ushbu tasvir ijtimoiy ongning hodisalarga ratsional munosabat bildirishdan ko‘ra ularni mif va rivoyat orqali anglashga moyilligini ko‘rsatadi. Natijada qo‘rquv ijtimoiy tartibni boshqaruvchi mexanizmga aylanadi.

Hikoyaning tarixiy-mifologik qatlamida Muqanna obrazi orqali soxta najotkorlik va mafkuraviy manipulyatsiya muammosi yoritiladi. Qahramon o‘zini mutlaq haqiqat manbai sifatida e‘lon qilib, diniy timsollarni to‘liq egallashga urinadi: “Men sizlarning najotkoringizdirman. Bilingki, najot sizga Isodan yetsa, Iso menman, Musodan yetsa, Muso ham menman, Muhammaddan yetsa, Muhammad menman va najot Parvardigoringizdan yetsa, Parvardigoringiz ham mendirman!”⁴⁰. Bu bayon jamiyatdagi ma‘naviy bo‘shliq sharoitida ommaning yolg‘on g‘oyani mutlaq haqiqat sifatida qabul qilish xavfini ochib beradi. Muallif shu orqali totalitar ong shakllanishining ichki mexanizmini badiiy asosda namoyon etadi.

Asardagi Hakim obrazi yirik mafkuraviy tizim ichida shaxs erkinligining yemirilishini ifodalaydi. Qahramon o‘z taqdirini anglagan holda ham undan qutula olmaydi: “Sho‘rim qurib, endi men ham shu lashkarning askariga aylangan ekanman. Nurli Jamol sohibi – ulug‘ qudrat egasi. Shamol chaqiradigan ham, momaqaldirok uyg‘otadigan ham, chaqmoq chaqnatadigan ham uning o‘zi...Yil o‘tgach, qoyalar yana surildi, lashkar yana yorug‘ dunyoga chiqdi. Bilib ol: bu shamolning siri ana shu lashkarda”⁴¹. Bu hol shaxsning jismonan mavjud bo‘lib, ijtimoiy jihatdan erksiz holga tushishini ifodalaydi. Inson bu tizimda subyekt emas, balki ijrochiga aylanadi.

Hikoyada ayol obrazi tanqidiy ong va ijtimoiy hushyorlik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. U yolg‘on mafkurani haqli ravishda rad etadi va haqiqatni talab qiladi: “— Yo‘q-yo‘q... Ayting, kimsiz? Siz mening erim emassiz?! Agar erim bo‘lsangiz, niqobingizni

³⁹ Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O‘zbekiston, 2011. – 243-b. (280 b)

⁴⁰ Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O‘zbekiston, 2011. – 250-b. (280 b)

⁴¹ Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O‘zbekiston, 2011. – 248-b. (280 b)





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



oling, ko'ray, — deb talab qildi juvon"⁴². Ushbu sahna jamiyatda haqiqatni ochish jasorat va shubha bilan bog'liq ekanini ko'rsatadi. Muallif ijtimoiy uyg'onish imkoniyatini aynan tanqidiy tafakkur bilan bog'laydi.

Asarning yakunida ommaning ko'r-ko'rona itoati fojiali yakun bilan nihoyasiga yetadi: "Alqissa, kishilar ko'zachadagi tilsimlangan sharobdan ichdilar va yerga yiqilib jon berdilar. So'ngida Muqannagina qoldi"⁴³. Bu manzara mafkuraviy mutaassiblikning eng keskin natijasini ifodalaydi. Ongdan ayrilgan jamiyat hatto o'z halokatini ham najot sifatida qabul qiladi.

Shu tariqa, Isajon Sulton mazkur hikoyada ijtimoiy muammolarni mif, tarix va ramzlar sintezi orqali chuqur badiiy umumlashtiradi. Qo'rquvga asoslangan kollektiv ong, soxta najotkorlik, shaxs erksizligi va ommaviy itoat masalalari asarning asosiy ijtimoiy mazmunini tashkil etib, bugungi jamiyat uchun ham dolzarb bo'lgan tanqidiy tafakkur zaruratini badiiy asosda tasdiqlaydi.

Isajon Sulton nasrida ijtimoiy muammolar ko'pincha ochiq konfliktlar yoki ijtimoiy sahnalar orqali emas, balki ramziy safar, majoziy makon va vaqt tushunchalari orqali ifodalanadi. "Manzil" hikoyasi ana shunday badiiy-falsafiy yo'sinda yaratilgan bo'lib, unda jamiyatning ma'naviy tanazzuli, noto'g'ri maqsad sari yo'naltirilgan ijtimoiy ong va insonning o'z ildizlaridan uzoqlashuvi masalalari markaziy o'rin tutadi. Hikoyada tasvirlangan uzoq safar inson hayotining, kengroq ma'noda esa jamiyat taraqqiyotining ramziy modeliga aylanadi: "Bu yo'limizning chek-chegarasi ko'rinmaydi. Mo'jazgina karvonimiz goh taram-taram tog'lar silsilasiga duch keladi, goh buloqlaridan ko'z yoshi singari tiniq suvlari oqib yotgan go'zal bog'li vohalarga kirib boramiz. Goh esa qarshimizda yastanib yotgan bepoyon sahro namoyon bo'ladi. Ulovlarimiz toliqqan, o'zimiz ham ozib-to'zib, bir ahvolga tushib qolganmiz. Shunga qaramay, tunlari omonat chodir tikib tunaymizu tong otar-otmas tag'in yo'lga otlanamiz"⁴⁴. Ushbu tasvir jamiyatning maqsadini aniq anglamagan holda uzluksiz harakatda bo'lishini, harakatning o'zi esa mazmunga aylanganini anglatadi.

Safar davomida yo'ldan qolib ketgan hamrohlar ijtimoiy tanlov muammosini ochib beradi. Farovonlik, mansab va lazzatni tanlaganlar yo'ldan chiqib ketadilar: "Podshoh bizlar bilan taxtidan tushib ko'rishdi, keyin: «Sizlar borayotgan manzil sari bu yerdan ko'p odamlar o'tishdi, ammo na manzilga yetganliklarini eshitdik, na qaytganlarini ko'rdik. Yaxshisi, mening mulkimda qolinglar, obro'li mansablarga tayin etayin, farovon hayot kechiringlar, deb ko'p qistadi. Oxir-oqibat bir necha safdoshimiz bu taklifga ko'nib, o'sha vohada qolib ketishdi"⁴⁵. Bu manzara jamiyatda qisqa muddatli manfaatlar uzoq muddatli maqsadlardan ustun qo'yilishini, natijada ma'naviy yo'lning uzilishini ifodalaydi.

⁴² Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O'zbekiston, 2011. - 249-b. (280 b)

⁴³ Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O'zbekiston, 2011. - 253-b. (280 b)

⁴⁴ Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O'zbekiston, 2011. - 280 b. - B. 204-205.

⁴⁵ Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O'zbekiston, 2011. - 280 b. - B. 205.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Ko‘hi Qof voqealari esa ijtimoiy muammoning yanada chuqurroq qatlamini ochadi. Go‘zallik, huzur-halovat va nafsni qondirish imkoniyatlari insonni asl yo‘lidan chalg‘ituvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi: “Ayollari shu qadar fusunkor edilarki, boshqa joyda bunday husnni ko‘rmaganmiz. Ular ham qay manzil tomon borayotganimizni eshitishib, yo‘ldan qaytarishga rosa urinishdi, qolinglar, Guliqahqah bilan Gulianbar eng yosh joriyalarini ixtiyorlaringizga berishsin, umringizning so‘ngigacha rohatda yashang, deb tavall o qilishdi. ancha-muncha hamrohlarimiz u go‘zallarga oshiq bo‘lib, o‘sha yerda qolib ketishdi”⁴⁶. Muallif bu orqali jamiyatning tashqi jozibaga berilib, ichki mohiyatni yo‘qotish xavfini badiiy tarzda ifodalaydi.

Safar cho‘zilgani sari insoniy tuyg‘ularning so‘nishi ijtimoiy muammo sifatida tasvirlanadi: “Diydamiz qotib, ko‘ngillarimiz ham tosh bo‘lib ketdi. Tevarakdagi manzaralar dilni to‘lqinlantirmay qo‘yganiga ancha bo‘ldi. Avvallari olis-olislarda qolib ketgan diyorumizni ko‘p qo‘msar edik. Endi esa, bu tuyg‘u zaiflashib, deyarli unutilgan”⁴⁷. Bu hol jamiyatda uzoq davom etgan noto‘g‘ri yo‘nalish insonni hissiy va ma‘naviy jihatdan qashshoqlashtirib qo‘yishini anglatadi.

Tilsim tog‘iga yetib kelinishi hikoyaning g‘oyaviy cho‘qqisidir. U yerda va‘da qiilingan cheksiz imkoniyatlar inson tomonidan allaqachon yo‘llarda yo‘qotib qo‘yilgani ayon bo‘ladi: “Axir, bu tilsim hadya etajak mo‘jizalarni bizlar yo‘llarimizda qoldirib kelmadikmi?”⁴⁸. Jamiyat uzoq yillar davomida intilgan moddiy va ramziy mukofotlar aslida insonning o‘zida bo‘lgan kuch va imkoniyatlarning so‘nib borishini qoplay olmaydi.

Hikoyaning yakunida Abdulla obrazi orqali ijtimoiy umid timsoli yaratiladi. U hali ma‘naviy jihatdan yemirilmagan, xotira va haqiqatni saqlab qolishga qodir avlod ramzidir: “Faqat Abdullagina bizlardan ancha tiyrak, nigohi o‘tkir, bilagi baquvvat, egarda shamshodday o‘tiribdi. Yagona umidimiz sendan, Abdulla”⁴⁹. Bu orqali muallif jamiyatning qutqarilishi faqat yangi avlodning haqiqatni anglab, uni boshqalarga yetkazishiga bog‘liq ekanini uqtiradi.

Shu tariqa, “Manzil” hikoyasida Isajon Sulton ijtimoiy muammolarni safar ramzi, yo‘ldan qolish, tuyg‘ularning so‘nishi va aldovchi manzillar orqali yoritadi. Asar jamiyatni tashqi maqsadlar ortidan quvish emas, balki yo‘lda yo‘qotilayotgan insoniylik, xotira va ma‘naviyat haqida o‘ylashga chorlaydi.

Isajon Sultonning “Mening gulim” hikoyasi tashqi syujet jihatidan lirik, intim kechinmalar asosiga qurilgandek ko‘rinsa-da, aslida unda jamiyat va inson o‘rtasidagi murakkab ijtimoiy-ma‘naviy munosabatlar chuqur ramziy qatlamda ifodalangan. Hikoyadagi gul obrazi individual tuyg‘u markazi bo‘lish bilan birga, jamiyatda kamyob bo‘lib borayotgan poklik, nafosat va ma‘naviy tozalik timsoliga aylanadi. Gulning katta va serhasham bog‘ ichida, ammo qo‘pol kesak yonidan unib chiqishi ijtimoiy muhitning qo‘pol

⁴⁶ Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O‘zbekiston, 2011. - 280 b. – B. 206.

⁴⁷ Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O‘zbekiston, 2011. - 280 b. – B. 206.

⁴⁸ Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O‘zbekiston, 2011. - 280 b. – B. 209.

⁴⁹ Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O‘zbekiston, 2011. - 280 b. – B. 211.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



va befarq sharoitida ham sof qadriyatlar tug‘ilishi mumkinligini anglatadi: “Bu jajji niholcha katta bir kesak yonidan unib chiqipti. Shu qadar qo‘pol, g‘adir-budir makonni tanlaganiga hayron qolasiz. Ipday gavdasi bilan hatto kesaktog‘ni xiyol o‘rnidan jildiripti ham – qaysargina, o‘jargina, o‘zbilarmongina ekan bu niholcha”⁵⁰. Ushbu manzara jamiyatdagi ma‘naviy qadriyatlar doimo qulay sharoitda emas, balki qarshiliklar ichida shakllanishini ko‘rsatadi.

Bog‘da tasvirlangan boshqa gullar: karnaygul, beorgul, atirgul va pechakgullar: ommaviylik, tashqi joziba va manfaatga moslashuvchanlik ramzlari sifatida gavdalanadi. Ularning tez tarvaqaylashi va atrofni egallab olishi jamiyatda shov-shuvli, lekin sayoz hodisalarning ustuvorligini ifodalaydi. Qahramonning aynan shu gullarni kesib tashlashi esa ijtimoiy tanlovni bildiradi: u ko‘pchilik e‘tiboridagi soxta qadriyatlarni rad etib, yolg‘iz, ammo sof go‘zallikni tanlaydi: “Tarvaqaylagan karnaygullarni, joy tanlamas beorgullarni yomon ko‘rdim. Ikkitasini tag-tugi bilan kesib tashladim”⁵¹.

Gulning musiqaga, xususan, “Cho‘li Iroq” kuyiga munosabati hikoyaning ijtimoiy-falsafiy qatlamini chuqurlashtiradi. Ushbu kuy orqali insoniyatga xos umumiy g‘am, tarixiy iztirob va yo‘qotishlar ramziy tarzda ifodalanadi: “Cho‘li Iroq” battar faryod uradi, girya qiladi, gulim esa motamsaro, g‘amzada, yaproqlariyu ochila boshlagan g‘unchalari, butun vujudi dir-dir titraydi”⁵². Bu hol jamiyatdagi nozik, sof ruhli shaxslar umumiy ijtimoiy dardni boshqalarga nisbatan keskinroq his etishini ko‘rsatadi.

Yoz faslida gulning o‘ziga xos kiborligi va tashqi omillarga parvo qilmasligi ijtimoiy mustaqillik timsoliga aylanadi. U na ommaviy e‘tiborga, na manfaatparast “oshiqlar”ga yon bosadi. Tong, quyosh, oqshom va yulduzlar bilan bog‘liq tasvirlar sof qadriyatlarning tabiat va vaqt bilan uyg‘un, ammo insoniy manfaatlardan yiroq ekanini ko‘rsatadi: “Ammo mening gulim kibor-ku! Birovigayam parvo qilgani yo‘q!”⁵³. Bu o‘rinda muallif jamiyatda chinakam qadriyatlar ko‘pincha e‘tiborsiz qolishini badiiy umumlashtiradi.

Kuzning “Sayyod” nomi bilan shaxsiylashtirilishi ijtimoiy muammoni yanada keskinlashtiradi. Sayyod — vayronkor kuch, ya‘ni zamon, zo‘ravon tarixiy jarayonlar va insonparvarlikni ayamadan yo‘q qiluvchi ijtimoiy mexanizm timsolidir. Boshqa gullarning taslim bo‘lishi fonida gulning so‘nggi lahzagacha mag‘rur turishi sof qadriyatlarning qarshilikka qaramay yashashga intilishini bildiradi: “Mening gulimgina Sayyod lashkari ning to‘foni aro hamon adl, hamon mag‘rur, ifor sochib ochilib turaverdi”⁵⁴. Gulning halokati esa jamiyatdagi eng og‘riqli ijtimoiy muammoni ochib beradi: sof, nozik va yuksak ma‘naviy qadriyatlar ko‘pincha tarixiy zo‘ravonlik va beomon zamon qarshisida omon qololmaydi. Qahramonning keyinchalik jang maydoniga, shahidlik sari ketishi shaxsiy fojining ijtimoiy fojiga ulanib ketishini anglatadi: “Alhol, ko‘nglimni shunda qoldirdimu o‘zim Otabekka

⁵⁰ Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O‘zbekiston, 2011. - 280 b. – B. 212.

⁵¹ Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O‘zbekiston, 2011. - 280 b. – B. 212.

⁵² Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O‘zbekiston, 2011. - 280 b. – B. 213.

⁵³ Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O‘zbekiston, 2011. - 280 b. – B. 214.

⁵⁴ Boqiy darbadar: roman / I.Sulton. - T.: O‘zbekiston, 2011. - 280 b. – B. 216.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



qo'shilib, Qo'qon xonining amirlashkari, qo'rboshi Qanoatshoh qo'shini bilan shahid bo'lmoq uchun ketdim"⁵⁵. Bu yakun individual muhabbat va jamiyat taqdiri o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi.

Shu tariqa, "Mening gulim" hikoyasi Isajon Sulton nasriga xos ramziy poetika orqali jamiyatdagi ma'naviy tanazzul, soxta qadriyatlarning ustuvorligi, sof insoniylikning himoyasizligi va tarixiy zo'rvonlik muammolarini yoritadi. Gul obrazi esa jamiyatda asrab-avaylanmasa, halok bo'lishi muqarrar bo'lgan yuksak ma'naviy qadriyatlarning badiiy timsoli sifatida talqin etiladi.

Isajon Sultonning "Toshkelinchak" hikoyasi o'zining zalvori va mungli yakuni bilan e'tiborni tortadi. Hikoyada ilgari surilgan ishq shaxsiy tuyg'u emas, ijtimoiy irodalar (ota-ona, "tagli-tugli", "o'qigan") bilan to'qnashganda fojia tug'diradigan kuch. Nazar kuch va bezorilikdan boshlanib, rad javob va ijtimoiy to'siqlar ta'sirida ruhan so'nish va tirik bo'shliq holatiga keladi. Hikoyadagi Nazar obrazi avval qudrat timsoli, keyin muhabbat oldida ojiz, oxirida esa fojiali qahramon nomus, me'yori ta'na qilinadi. Adabiyotshunos Bahodir Karim Isajon Sultonning "Toshkelinchak" hikoyasi haqida quyidagicha mulohaza yuritadi: Ishq ko'chasiga kirgan odam telbalanadi. Xuddi shunday kayfiyat hikoya qahramoni Nazar tabiatida ham yetakchilik qiladi. Nazar degan bu yigit Ummugulsumni sevib qolgan. Hikoya keng qamrovli: ishqning uzun tarixi bor. Qiz boshqaga uzatilib, "ikkinchi bolasini tug'olmay olamdan" o'tadi. Ishq tarixi rivoyatga aylangandek, odamlar nazaridan qolgan Nazar ruhi suyгани bilan birga ko'milgandek. "Toshkelinchak" umumpafosida lirizm bilan qahramon taqdirining fojeiy tasviri uyg'unlashib ketadi. Hikoya mahzun yakun topadi. Bayonga muallifning ba'zan "Taziyaga biz ham bordik", "Hikoya shu bilan tugasa-ku mayliydi, ammo hali gap bor" tarzidagi aralashuvi voqelik qamrovini yaxlitlaydi. Unda maxsus ta'kidlanganidek, bu hikoya haqiqatan ham "shunday qayg'uli, hasratli ishq dostonidir". Hikoya Isajon Sulton uslubiga xos chin samimiyat, xotirjam va sokin bir ruh bilan yo'g'rilgan"⁵⁶. Asar qahramoni normani rad etadi. Ko'proq subekt emas, patriarxal tartibdagi obyekt ("otam nima desa shu"); o'limi ayol taqdirining ijtimoiy xatarlarini ochadi. Toshkelinchak — yetolmagan ishqning muzlashi. Nazarning umidi toshga urilib sinadi. Fojia rivoyatga aylanadi. To'y kuylangan qo'shiqlar shodlik emas, Nazarning ichki monologi sifatida yangraydi. Xalqona matnlar (qo'shiq, topishmoq) fojia ga doston ohangini beradi. Jamiyat tiriklikda "qo'yib bermaydi", o'limdan keyin esa "ziyorat" bilan o'zini oqlaydi. Hikoyaning achchiq va zalvorli savoli shu.

Xulosa

Xulosa qilib aytak, Isajon Sulton hikoyalarida aks etgan ijtimoiy muammolar murakkab va ko'p qatlamli estetik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu asarlarda jamiyat hayotidagi ziddiyatlar va muammolar tashqi hodisalar yoki ochiq konfliktlar darajasida emas, balki shaxs ongida kechayotgan ruhiy siljishlar, ichki iztiroblar hamda axloqiy

⁵⁵ Boqiy darbadar: roman / I. Sulton. - T.: O'zbekiston, 2011. - 280 b. - B. 212.

⁵⁶ Karim, Bahodir. Istiqloq adabiyoti: nazm va nasr. - Toshkent: "Firdavs-shoh" nashriyoti, 2021. - 146 b. - B. 79.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



tanlovlar orqali badiiy umumlashtiriladi. Natijada ijtimoiy muammo inson taqdiri bilan uzviy bog‘liq holda ochilib, o‘quvchini chuqur estetik va ma‘naviy mushohadaga undaydi.

Keksalik va yolg‘izlik, tan olinmagan mehnat, soxta mafkuraviy va‘dalar, ommaviy itoat hamda ma‘naviy bo‘shliq kabi masalalar Isajon Sulton hikoyalarida inson taqdirini belgilovchi ijtimoiy mexanizmlar sifatida talqin qilinadi. Bu muammolar jamiyatda asta-sekin shakllanib, shaxsning ichki erkinligi va axloqiy barqarorligiga putur yetkazuvchi omillar sifatida ko‘rsatiladi. Yozuvchi ijtimoiy bosimning inson ruhiyatiga ta‘sirini sokin, ammo ta‘sirchan badiiy tasvirlar orqali ochib beradi.

Isajon Sulton ijtimoiy muammolarni ochiq publitsistik tanqid yo‘li bilan emas, balki ramziy-mifologik tafakkur, xotira va metaforik obrazlar vositasida chuqur falsafiy darajada yoritadi. “Bog‘i Eram”da avlodlar xotirasi va keksalik muammosi, “Todd”da mehnat va adolatsiz baho, “Tilsim lashkari yoxud Muqanna”da soxta najotkorlik va ommaviy ong, “Manzil”da ma‘naviy yo‘nalishning yo‘qolishi, “Mening gulim”da sof qadriyatlarning himoyasizligi, “Toshkelinchak”da esa patriarxal me‘yorlar oqibatida yuzaga kelgan fojia badiiy umumlashtiriladi. Bu asarlar orqali jamiyat ongidagi chuqur ildiz otgan muammolar inson ruhiyati prizmasida ochib beriladi.

Umuman olganda, Isajon Sulton hikoyachiligi zamonaviy o‘zbek adabiyotida ijtimoiy muammolarni poetik tafakkur asosida yoritgan, jamiyatning ma‘naviy holatini teran estetik idrok etishga chorlovchi yuksak badiiy hodisa sifatida baholanadi. Hikoya janri ushbu asarlarda ommaviy ongni tanqidiy anglash, insoniy mas‘uliyat va axloqiy tanlov masalalarini ko‘tarishda yetakchi estetik vosita bo‘lib namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sul‘ton, Isajon. Boqiy darbadar: roman. — Toshkent: O‘zbekiston, 2011. — 153 b (280 b.)
2. Karim, Bahodir. Istiqlol adabiyoti: nazm va nasr. - Toshkent: “Firdavs-shoh” nashriyoti, 2021. - 146 b. – B.
3. Шодиев Н. Психологик таҳлил принциплари, форма ва воситалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1973, 2-сон.
4. Шодиев Н. Рухият рассоми. – Тошкент: Фан, 1977.
5. Yangi avlod ovozi. Islom Yoqubov, Abdunabi Namro, Xursandbek To‘liboyev (suhbat). Sharq yulduzi, 2013, 5-son.
6. Янги авлод овози. Суҳбат. Раҳимжон Раҳмат жавоблари. Шарқ юлдузи, 2013, 2-сон. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: “Kamalak”, 2016.
7. Йўлдошев Қ. Хаёлот ва ҳаёт манзаралари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2017.22.09.